

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO‘K: 297.162(092)

IMOM ASH-SHOTIBIYNING QIROAT ILMIDAGI XIZMATLARI VA UNING ILMIY MEROSI

«УСЛУГИ ИМАМА АШ-ШАТИБИ В НАУКЕ КИРОАТА И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ»

IMAM ASH-SHOTIBI'S CONTRIBUTIONS IN THE SCIENCE OF RECITATION AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE

Rauпова Ra'no Soyibovna¹ ¹Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası dotsenti, falsafa fanları doktori (PhD)Rajabova Nilufar² ²Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası islomshunoslik ta'lim yo'nalishi magistranti

Anotatsiya

Bu tezisda qiroat ilmining mashhur olimi Imom Shotibiy haqida so'z boradi. Unda uning hayoti, yozgan kitoblari haqida so'z boradi. Shuningdek, Imom Shotibiy ilimga qo'shgan hissi, uning shogirdlari va qoldirgan merosi bugungi kunda ham musulmonlar uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qilayotgani ko'rsatib berilgan.

Abstract

This thesis discusses the famous scholar of Qur'anic recitation, Imam al-Shatibi. It covers his life, the books he authored, and highlights his contribution to the science of Qur'anic recitation. Furthermore, it shows how his students and the legacy he left behind continue to serve as a valuable guide for Muslims even today.

Аннотация

В данной работе рассматривается известный учёный в области коранического чтения - имам аш-Шатиби. В ней описывается его жизнь, написанные им книги, а также вклад в развитие науки о чтении Корана. Кроме того, отмечается, что его ученики и оставленное им наследие до сих пор служат полезным руководством для мусульман.

Kalit so'zlar: Abu Muhammad al-Qosim ibn Firruh ibn Xalaf ibn Ahmad ash-Shotibiy, "Shotibiyya" asari, Qur'onning ettita mashhur qiroati, 1173 bayt, Qiroat ilmi.

Ключевые слова: Абу Мухаммад аль-Косим ибн Фиррух ибн Халаф ибн Ахмад аш-Шатиби, труд «Шатибийя», семь известных чтений Корана, 1173 бейта, наука о кираате.

Key words: abu muhammad al-qasim ibn firruh ibn khalf ibn ahmad al-shatibi, the work "shatibiyyah", the seven famous recitations of the qur'an, 1173 verses, the science of qira'at.

KIRISH

Islom tarixida Qur'on ilmlari, xususan qiroat ilmi eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu ilmni rivojlantirish, Qur'onni to'g'ri va aniq talaffuz bilan o'qish qoidalarini asrlar davomida musulmonlarga etkazish yo'lida ko'plab allomalar xizmat qilgan. Shulardan biri – Imom Shotibiy bo'lib, u o'zining "Hirzul-amoniyy" ("Shatibiyya") asari orqali qiroat ilmini tartibga solib, uni tizimli ravishda keyingi avlodlarga etkazib bergan.

Mavzuning bugungi dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida Qur'onni to'g'ri qiroat qilish, tajvid qoidalarini mukammal bilish va uni yosh avlodga o'rgatish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda musulmon jamiyatida Qur'onni to'g'ri tilovat qilishga ehtiyoj yuqori bo'lib, Imom Shotibiy kabi allomalarning asarlari bu borada ishonchli manba va metodik qo'llanma vazifasini bajaradi. Shu bois, Imom Shotibiyning hayoti va ilmiy merosini o'rganish nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

To'liq ismi: Abu Muhammad al-Qosim ibn Firruh ibn Xalaf ibn Ahmad ash-Shotibiy al-Ru'ayniy al-Andalusiy. 538-hijriy (1144-milodiy) yilda Andalusning Shatiba (hozirgi Ispaniyaning Játiva shahri)da tug'ilgan. "Ash-Shotibiy" nisbasi uning tug'ilgan joyi – Shatibadan olingan. Nasabida

"ar-Ru'ayniy" laqabi ham uchraydi, bu uning qabilasini bildiradi. Manbaalarda kelishicha yoshligidan Qur'on va qiroat ilmini o'rganishga kirishgan. Andalusda zamonasining mashhur qurrā'lari (qiroatchilari)dan dars olgan. Ustozlaridan biri – Abu Abdullah Muhammad ibn Hamid va boshqa qiroat ahli bo'lgan olimlardir. Arab tili, sarf-nahv, adabiyot va she'riyatni ham chuqur o'rgangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Keyinchalik ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun Misrga (Qohira)ga ko'chib o'tadi. Qohira davrida mashhur qiroatchilar bilan ilmiy suhbatlar qilgan, talabalariga saboq bergan. Shu davrda o'zining buyuk asari "Hirz al-Amani wa Wajh at-Tahani" (Matn ash-Shotibiyya)ni yozgan.

"Shotibiyya" asari: Bu asar Qur'onning ettita mashhur qiroatini she'riy baytlar shaklida jamlagan. Asar 1173 baytdan iborat. Qiroat ilmida yod olishni va ta'lim berishni engillashtirgan eng mashhur manbalardan biridir. Keyinchalik Ibn al-Jazariy (751–833 h.q.) o'zining "An-Nashr fi al-Qiro'at al-'Ashr" asarida bu an'anani kengaytirgan. U Qohirada ko'plab shogirdlar etishtirgan.

Ularning ichida mashhur qiroatchilar va ulamolar ham bo'lgan, ular keyinchalik "Shotibiyya"ni sharhlab, izohlaganlar. Imom Shotibiy Qur'on qiroatlarini she'riy shaklda jamlagan.

Mashhur asari: "Hirz al-Amani va Wajh at-Tahani" (Shotibiyya) – 1173 baytdan iborat. Unda ettita mashhur qiroat imomi va ularning roviylari tartibli va ixcham uslubda bayon qilingan. Bu asar qiroat ilmida yod olish va o'qitishda eng asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

"Shotibiyya" matni qiroat ilmida standart qo'llanma sifatida asrlar davomida o'qitib kelinmoqda. Qiroatchilar, mufasssirlar va fiqh olimlari bu asardan keng foydalangan. Uning ilmiy yondashuvi Qur'on ilmini yodlashni va o'rgatishni yanada tizimli qilgan.

Imom Shotibiy ilmiy merosi haqida yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak:

1. Qiroat ilmiga qo'shgan hissasi:

Imom Shotibiy Qur'on qiroatlarini nazm (she'r) shaklida jamlagan birinchi buyuk allomalardan biridir.

Uning mashhur asari "Hirz al-Amani wa Wajh at-Tahani" - xalq orasida "Matn ash-Shotibiyya" deb tanilgan - qiroat ilmida inqilobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu kitob Imom Abu 'Amr ad-Daniyning "At-Taysir fi al-Qira'at as-Sab'" asariga asoslanib yozilgan, ammo Shotibiy uni nazm shakliga solib, o'qishni va yodlashni osonlashtirdi.

Asarda ettita mashhur qiroat imomi (Nafi', Ibn Kathir, Abu 'Amr, Ibn 'Amir, Asim, Hamza, al-Kisai) va ularning eng mashhur roviylari tartibli ravishda bayon etilgan.

2. "Shotibiyya" matnining o'ziga xosligi: Asar 1173 baytdan iborat bo'lib, qiroatdagi farqlarni ixcham, lekin mukammal tarzda ifodalaydi. Har bir qiroatning o'ziga xos o'qilishi, fonetik tafovutlari va rivoyatlaridagi nozik jihatlar she'riy satrlarda ifodalanadi. Asarning she'riy uslubda yozilgani uni qiroatchilar uchun yod olish qo'llanmasiga aylantirdi. Bu metod qiroat ilmini keng ommaga yoyishga katta yordam berdi - ayniqsa og'zaki rivoyat orqali.

3. Sharhlar va izohlar an'anasi: "Shotibiyya" yozilganidan keyin yuzlab ulamolar unga sharh va hashiya yozdilar. Mashhurlaridan: Ibn al-Qosih (vaf. 801 h.q.) – "Sharh ash-Shotibiyya".

Abu Shama al-Maqdisiy (vaf. 665 h.q.) – "Ibrāz al-Ma'ani min Hirz al-Amani".

Mulla 'Ali al-Qariy (vaf. 1014 h.q.) – "Minah al-Fikriyyah". Bu sharhlar asarning ilmiy qiymatini yanada mustahkamladi va keyingi avlodlarga tushunarli qilib berdi.

4. Qur'on ta'limotidagi o'rni. Shotibiy asari orqali qiroat ilmi islom dunyosining turli mintaqalarida yagona manba asosida o'qitila boshladi. Misr, Shom, Mag'rib, Hijoz va boshqa hududlarda Qur'on maktablari asrlar davomida "Shotibiyya" asosida ta'lim berdi.

Shunday qilib, u Qur'on ilmining yagona me'yoriy dasturini yaratdi.

Imom Qosim ibn Firruh ash-Shotibiy Qur'on qiroatlari ilmida beqiyos xizmat qilgan olimdir. Uning "Shotibiyya" asari qiroat ilmini tartibga solib, uni o'rganish va yodlashni osonlashtirdi. Bugungi kunda ham "Shotibiyya" qiroat ilmida asosiy matn sifatida o'qitilib, Shotibiy ilmiy merosining boqiyiligini tasdiqlamoqda.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ilmiy merosning qadri. Imom Shotibiy Qur'on qiroatlari ilmini tartibga solgan, ularni tizimli ravishda keyingi avlodlarga etkazgan buyuk alloma sifatida tarixda chuqur iz qoldirdi. Uning "Hirzul-amoniy" ("Shotibiyya") asari ilmiy qiymati yuqori bo'lib, qiroat ilmining rivojida asosiy qo'llanma vazifasini bajargan va hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan.

2. Amaliy ahamiyat. Bugungi globallashtiruv sharoitida Qur'onni to'g'ri qiroat qilish, tajvid qoidalarini mukammal bilish va uni yosh avlodga o'rgatish ehtiyoji yanada ortib bormoqda. Shu

FALSAFA

nuqtayi nazardan, Imom Shotibiy asarlari zamonaviy musulmon jamiyati uchun ishonchli metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

3. Ma'naviy ibrat. Imom Shotibiyning hayoti va faoliyati ilmga muhabbat, sabr-toqat, ustoz-shogirdlik an'anasiga sodiqlik va ilmiy merosni asrab-avaylashning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu qadriyatlar bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda muhim ibrat manbai bo'lib qolmoqda.

4. Dolzarblik va davomiylik. Shotibiyning qiroat ilmidagi yondashuvlari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi zamonda ham Qur'on ilmlarini chuqur o'rganish va talqin etishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Uning ilmiy merosini o'rganish, uni yangi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish Qur'on ta'limini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, Imom Shotibiyning ilmiy merosi musulmonlar uchun nur manbai bo'lib qolmoqda. U Qur'onni anglash, unga sodiq qolish va uni to'g'ri o'qish yo'lida mustahkam tayanch bo'lib, kelajak avlod uchun ham bebaho boylikdir.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Imom Shotibiy islom ilmlarida, ayniqsa Qur'on qiroatida o'ziga xos maktab yaratgan buyuk alloma sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning "Hirzul-amoniyy" ("Shatibiyya") asari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham musulmon ulamolari va qiroat ahli uchun asosiy qo'llanma bo'lib kelgan. Ushbu asar Qur'on qiroatlarining ilmiy asoslarini o'zida mujassam etib, ilmiy yondashuvni amaliy o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirgan.

Imom Shotibiyning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki Qur'onni to'g'ri talaffuz qilish, qiroatlarning xilma-xilligini o'rganish va ularni yosh avlodga etkazish masalalari hozirgi zamon musulmon jamiyati oldida muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda Shotibiyning asarlari ishonchli manba va metodik qo'llanma vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Imom Shotibiyning hayoti va faoliyati ilmga ixlos, sabr-toqat, ustoz-shogirdlik an'anasiga sodiqlik va ilmiy merosni asrab-avaylash kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etgan. Bu esa bugungi kunda nafaqat Qur'on ilmlari, balki umuman islomiy-ma'naviy tarbiya jarayonida ham ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Imom Shotibiyning shaxsiyati va ilmiy merosini chuqur o'rganish bizni Qur'on ilmlarini yanada puxta anglashga, qiroatning nozik jihatlarini to'g'ri talqin qilishga va ilmiy merosdan samarali foydalanishga chorlaydi. Uning asarlari hozirgi davrda ham musulmonlar uchun nur manbai, Qur'onni anglash va unga sodiq qolish yo'lida mustahkam tayanch bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ash-Shotibiy, al-Qosim ibn Firruh. "Hirz al-Amani wa Wajh at-Tahani" (Matn ash-Shotibiyya). Qohira: al-Matba'a al-Misriyya, 1890.
2. Ibn al-Jazari, Muhammad ibn Muhammad. "An-Nashr fi al-Qira'at al-'Ashr". Bayrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, 1980.
3. Ad-Dani, Abu 'Amr. "At-Taysir fi al-Qira'at as-Sab'". Bayrut: Mu'assasat ar-Risala, 1995.
4. Az-Zarkashi, Badr ad-Din. "Al-Burhan fi Ulum al-Qur'an". Qohira: Dar al-Kutub, 1984.
5. As-Suyuti, Jaloliddin. "Al-Itqan fi Ulum al-Qur'an". Bayrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, 1996.
6. Dutton, Yasin. "Qur'anic Readings in Medieval Andalusia: Qur'an, Qira'at and Qurrā' in the Tenth Century." Oxford: Oxford University Press, 1999.
7. Gilliot, Claude. "The Study of the Qur'an: The Background of the 'Qira'at' Tradition." Cambridge University Press, 2006.